

ЎЗБЕКИСТОН ҚОNUНЧИЛИГИ ТАҲЛИЛИ

UZBEKISTAN LAW REVIEW

ОБЗОР ЗАКОНОДАТЕЛЬСТВА
УЗБЕКИСТАНА

ИЛМИЙ
ТАҲЛИЛИЙ
ЖУРНАЛ

SCIENTIFIC
ANALYTICAL
JOURNAL

НАУЧНО
АНАЛИТИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ

2024
№4

ТАХРИР ҲАЙЪАТИ**БОШ МУҲАРРИР:**

Гулямов Сайд Саидахаррович – юридик фанлари доктори, профессор.

ТАХРИР ҲАЙЪАТИ АЪЗОЛАРИ:

Рустамбеков Исламбек Рустамбекович – ю.ф.д., профессор.

Хўжаев Шоҳжакон Акмалжон ўғли – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори.

Оқолов Омонбай – ю.ф.д., профессор.

Эргашев Восит Ёкубович – ю.ф.н., профессор.

Махкамов Отабек Мухтарович – ю.ф.д.

Суюнова Дилбар Жолдасбаева – ю.ф.д., доц.

Мусаев Бекзод Турсунбоеvич – ю.ф.д., доц.

Беков Иҳтиёр – ю.ф.д., проф.

Бозоров Сардор Соҳибжонович – ю.ф.д., проф. в.б.

Хазраткулов Одилбек Турсунович – юридик фанлари номзоди, доцент.

Самарходжаев Ботир Билилович – ю.ф.д., профессор.

Ходжаев Бахшилло Камалович – ю.ф.д., профессор.

Нарзиев Отабек Саъдиевич – ю.ф.д., проф. в.б.

Жолдасова Шахноза Батировна – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори.

Маълумот олиш учун куйидагиларга мурожат этиш сўралади:

Гулямов Сайд Саидахаррович,
Рустамбеков Исламбек Рустамбекович
ТДЮУ, Халқаро хусусий ҳуқуқ кафедраси,
Ўзбекистон Республикаси, Тошкент ш., 100047,
Сайилгоҳ кўчаси, 35. Тел: 233-66-36

"Ўзбекистон қонунчилиги таҳлили"нинг электрон нусхаси Интернетдаги www.library-tsul.uz ёки www.lawreview.uz сайтида жойлаштирилган.

**Журнал 2013 йилдан Ўзбекистон Республикаси
Вазирлар Махкамасининг Олий Аттестация
комиссияси журнallари рўйхатига киритилган.**

Ушбу журналда баён этилган натижалар, холосалар, талқинлар уларнинг муаллифларига тегишли бўлиб, Ўзбекистон Республикаси ёки Тошкент давлат юридик университети сиёсати ёки фикрини акс эттирамайди.

2024 йилда нашр этилади.

Муаллифлик ҳуқуқлари Тошкент давлат юридик университетига тегишли. Барча ҳуқуклар химояланган. Журнал материалларидан фойдаланиш, тарқатиш ва кўпайтириш Тошкент давлат юридик университети рухсати билан амалга оширилади. Ушбу масалалар бўйича Тошкент давлат юридик университетига мурооат этилади. Ўзбекистон Республикаси, Тошкент ш., 100047, Сайилгоҳ кўчаси, 35.

ISSN 2181-8118

Масъул котиб: **И. Рустамбеков**

Нашриёт мухаррири: **Н. Ниязова**

Техник мухаррир: **Д. Козимов**

Лицензия № 02-0074

Босишига руҳсат этилди – 25.12.2024

Нашриёт ҳисоб табоғи – 5

«IMPRESS MEDIA» босмахонасида босилди

Адади – 100 нусха.

**ИЛМИЙ-ТАХЛИЛИЙ
ЖУРНАЛ****4/2024****МУНДАРИЖА**

Ш.Туйчиева Теоретические основания и критический анализ подхода к урегулированию инвестиционных споров в контексте статьи 63 Закона Республики Узбекистан «Об инвестициях и инвестиционной деятельности»	3
У.Шаракметова Укрепление в семье личных и имущественных прав обязанностей супругов на основе принципа равенства	7
Ж.Тўраев Ходимларнинг меҳнат ҳуқуқларига риоя қилиниши бўйича давлат назорати ва текшируванинг назарий ва амалий аҳамияти.....	11
Д. Имамова Определение применимого права для внешнеэкономических сделок в условиях цифрового пространства.....	15
Х.Шарилова Правовое регулирование облачных технологий в контексте международного сотрудничества.....	17
I.Abdikhakimov Quantum computing and its impact on cybersecurity: redefining legal frameworks for a post-quantum era.....	20
I. Rahmatulloev Prokuratura organlarining fuqarolik huquq va burchlarini amalga oshirishdagi ishtiroki	24
S. Tatar, N. Dilbooev Means of international investment dispute resolution	28
Э.Инамджанова Особенности преподавания коллизионного права в современном образовательном процессе.....	32
J. Askarov Sun'iy intellekt yordamida sog'liqni saqlashni rivojlantirish: huquqiy takomillashtirish.....	46
T.Pulatov Digital Financial Assets as an Object of Civil Rights.....	50
Д.Имамалиева Развитие механизмов альтернативного разрешения споров на международной и национальной арене.....	57
SH.Almosova Xalqaro shartnomalar ijrosini ta'minlash usullari va vositalari tahlili	62
A.Akramov A comparative analysis of international legal norms regarding the inheritance of digital property.....	69
E.Asadov Davlat moliyaviy nazoratida moliyaviy javobgarlik va uning yuridik tabiati.....	77
D.Abdullaeva The system of international control over the observance of human rights at work....	88
М. Турдиалиев Определение и сущность искусственного интеллекта (ии) в контексте международной торговли.....	93
О.Хазраткулов Рақамили активлар билан боғлиқ муносабатларни фуқаролик-ҳуқукий тартибига солиш масаласида хорижий мамлакатлар тажрибаси.....	102
Б.Акмалхонов Механизмы защиты права собственности в международном праве.....	109
Sh.Alamonova Revisiting Public Services under GATS: A Legal Analysis of Commitments and State Discretion.....	114
Б.Сайдов Проблемы гражданско-правового обеспечения кибербезопасности охраняемых объектов: договорные аспекты	118
Sh.Sotvoldiyev Xalqaro tijorat sudlari - nizolarni hal qilishning usuli sifatida	124
А.Вахабов Халқаро хусусий ҳуқуқда – lex voluntatis тамойили	126

Sotvoldiyev Shuxratjon Sharifjon o'g'li
Toshkent davlat agrar universiteti
"Huquqshunoslik" kafedrasi o'qituvchisi

XALQARO TIJORAT SUDLARI - NIZOLARNI HAL QILISH USULI SIFATIDA

Аннотация. В данной статье рассматривается роль новых международных коммерческих судов в разрешении споров в настоящее время и их значение в разрешении международных экономических споров.

В статье также рассматриваются мнения ученых в этой области о том, чем этот новый судебный институт отличается от других судебных институтов, какие возможности он предоставляет сторонам для разрешения споров, а также разъясняется читателю важность нового судебного института.

Ключевые слова: Международные коммерческие суды, арбитражи, экономические отношения, экономические споры, альтернативное разрешение споров.

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirgi kunda nizolarni hal etishda yangi vujudga kelgan Xalqaro tijorat sudsining o'rni, xalqaro iqtisodiy nizolarni hal etishda ularning qanday ahamiyat kasb etayotgani haqida so'z boradi.

Shuningdek maqolada ushbu yangi sud institutining boshqa sud institutlaridan qanday farq qilishi, unda nizolarni ko'rishning taraflar uchun qanday imkoniyatlar berishi haqidagi soha olimlarining fikr mulohazalari yuritiladi hamda o'quvchiga yangi sud institutining ahamiyati tushuntiriladi.

Kalit so'zlar: Xalqaro tijorat suds, arbitrajlar, iqtisodiy aloqalar, iqtisodiy nizolar, nizolarni muqobil hal etish.

Abstract. This article discusses the role of the newly emerged International Commercial Courts in resolving disputes today, and their importance in resolving international economic disputes.

The article also discusses the opinions of scholars in the field on how this new judicial institution differs from other judicial institutions, what opportunities it provides for the parties to consider disputes, and explains to the reader the importance of the new judicial institution.

Keywords: International Commercial Courts, Arbitrations, Economic Relations, Economic Disputes, Alternative Dispute Resolution

Kirish

Hozirgi globallashgan zamonda jahon iqtisodiyoti tobora rivojlanib, bir-biri bilan integrallashib bormoqda. Davlatlar o'tasida iqtisodiy aloqalar rivojlanib borar ekan ular o'tasida yuzaga keladigan tijoriy muammolar ham kunsayib ko'payib dolzarb muammolarga aylanib bormoqda. Xususan yurtimiz ham jahon iqtisodiy integratsiyaga qo'shilib borar ekan xorijiy investor va tad-

birkorlar bilan hamkorlik qilib biznes yuritishda tabiiyki nizolar kelib chiqadi va bu kabi nizoalrni hal etishda jahon tajribasidan ma'lumki, taraflar ko'pincha davlatning vakolatli sud organlaridan ko'ra arbitraj sudsida ish ko'rishni maqla ko'radilar shunday ekan, bu kabi arbitraj sudsini yurtimizda ham faoliyatini yo'nga qo'yish va investorlar uchun qulay muhit yaratish maqsadida hukumatimiz bir qator ishlarni amalga oshirmoqda masalan, Prezident qarori asosida 2019-yilda Tashkent international arbitration centre (TIAC) tashkil etilib, xalqaro savdo va investitsiya nizolarini hal qilish uchun mustaqil organ sifatida faoliyat yuritib kelmoqda. 2023-yilda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Toshkent xalqaro investitsiya forumi yalpi majlisida yurtimizda xalqaro tijorat sudi tashkil etilishini ma'lum qilgan. Shu vaqtan boshlab yurtimizda yetakchi olimlar va mutaxassislar boshchiligidagi ushbu sud institutini tashkil etish boradi izchil harakatlar olib bormoqdalar. Ushbu maqolada ushbu sud institutining asosiy xususiyatlari va faoliyat olib boorish sohalari va boshqa sud institutlaridan farqi keltirilib o'tiladi.

Metodologiya: Ushbu maqolada xalqaro tijorat sudsining xalqaro iqtisodiy nizolarni ko'rishda qanday o'ringa egaligi turli xorijiy davlatlardagi xalqaro tijorat sudsining bir-biridan farqli jihatlari hamda suhbu sudsarning arbitraj sudsidan qanday farq qilishi o'zaro taqqoslash orqali ko'rib chiqiladi.

Muhokama: Avvalo yurtimizda ushbu sud institutini tashkil etish borasidagi ishlarning tarixiga nazar solsak, prezidentimizning 2022-yil 20-dekabrdagi parlamentga murojatnomasida ilk martga yurtimizda xalqaro tijorat sudsini tashkil etish haqida fikr ilgari surilgan, shuningdek, 2023-yil bahorida bo'lib o'tgan Toshkent xalqaro investitsiya forumida ham yurtboshimiz xalqaro ekspertlar ko'magida xalqaro tijorat sudsining faoliyati yo'nga qo'yilishi haqida ma'lum qilgan. Shu bilan yurtimizda ushbu sudsini tashkil etish borasida ishlar jadal amalga oshirilmoqda. Endi ushbu sudsarning o'zini haqida batafsil ko'rib o'tsak.

Hozirgi kunda xalqaro iqtisodiy aloqalarda agarida taraflar o'tasida nizo chiqadigan bo'lsa, nizo ishtirokchilari uni asosan arbitraj sudsini hal etishni Afzal ko'radilar chunki bunday suds shu sohaga ixtisoslashgan, boy tajribaga ega hamda davlatdan ajralgan mustaqil organ hisoblanadi. Bilamizki xar bir arbitraj sudsining o'z faoliyatini tartibga soluvchi normativ hujjalari mavjud bo'lib, ularda tartib qoidalar bir-birlaridan farq qiladi. Shuning uchun ham xalqaro tijoriy nizolarni hal etishda nizo taraflari o'zlarining imkoniyatlariga mos arbitraj sudsida nizolarni ko'rishni xohlaydilar, bunda ular sudsarning ishni ko'rishdagi salohiyati, ishni ko'rishda tarafga nisbatan adolatli munosabatda bo'lish shuningdek, ishni ko'rish uchun oladigan haqlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham hozirgi kunda dunyo bo'ylab juda ko'plab iqtisodiy nizolarni ko'rishga ixtisoslashgan arbitraj sudsini faoliyat yuritadi hamda, deyarli barcha bu kabi sudsarni o'ziga xos xususiyatlari bor lekin shunday bo'lsada ularning o'tasi umumiyo'xshash unsurlar mavjud. Masalan, barcha arbitraj sudsida faqat birinchi instansiya mavjud, ya'ni hammamizga ma'lumki vakolatli davlat sud-

larida sudlar instansiyalarga bo'linadi. Sudga kelib tushgan ish dastlab 1-instansiya keyin 2-instansiya, keyin 3-instansiya ko'riliши mumkin, biroq arbitraj sudlarida unday emas. Arbitraj sudlarda chiqargan hal qiluv qarori ustidan shikoyat berib bo'lmaydi chunki shikoyat beriladigan isntansiyaning o'z yo'q. Shuning uchun ham taraflar arbitrajda nizolarni hal etishda bor imkoniyatlari ishga solib ishni o'z foydalari uchun yutishga harakat qiladilar. Shuningdek, arbitraj sudlari nizolarni hal etishning muqobil yo'li sifatida ko'rildi ya'niki, taraflar arbitraj sudiga o'zaro rozilik asosida murojaat etadilar.

Xalqaro tijorat sudlari arbitraj sudlaridan bir qancha jihatlari bilan farq qiladi. Xalqaro tijorat sudlari asosiy xusisiyati ular asosan davlat organi sifatida tashkil etilishi hisoblanadi. Bilamizki arbitraj sudlari asosan mustaqil institut sifatida, biror fond yoki tashkilot qoshida tashkil etilib faoliyat yuritadi va rasman davlat organi hisoblanmaydi. Xalqar tijorat sudlari aynan davlat organi sifatida sud tizimining ichida alohida bo'limma sifatida tashkil etiladi va shu jihat bilan arbitraj sudlaridan farq qiladi. Misol uchun bu kabi sudlardan birinchilari Singapurda 2015-yilda tashkil etilgan va xalqaro va tijoriy nizolarni ko'radi. Singapur bosh sudyasi Sundaresh Menonnig ta'kidlashicha Singapur xalqaro sudi tashkil etilganidan so'ng keying o'n yil ichida ushbu sud instituti bosh mahalliy sud sudlardan roman-german va anglo-sakson huquq oilasiga mansub tajribali sudyalarining faoliyi olib borishi hamda xalqaro tijorat sudlari olib boorish uchun qulay protsessual qoidalar qo'llanadi. Singapurda so'ngi yillarda o'tkazilgan so'rovlar shuni ko'rsatadiki, respondentlar tomonidan Singapur xalqaro tijorat sudi eng ko'p qo'llanilgan sud deb topilgan ekan.

Xalqaro tijorat sudlari arbitraj sudlariga nisbatan ancha yosh sudlar hisoblanadi. Arbitraj sudlari uzoq yillik tarixga ega bo'lgan holda, bu sudlar asosan oxirgi o'ttiz yil ichida vujudga kelgan. Keling bu sudlarni arbitraj sudlaridan farqlarini ko'rib chiqsak, yaqqol ko'zga tashlanadigan farq shuki arbitraj sudlarida 2-instansiya bo'lmaydi ya'niki, arbitraj sudi chiqargan qaror ustidan apellyatsiya shikoyat berib bo'lmaydi chunki bunday organni o'zi yo'q. Xalqaro tijorat sudlarida esa odatda ikkita instansiya bo'ladi: 1-instansiya va 2-instansiya (Apellatsiya instansiysi). Agarda taraflar sudning hal qiluv qaroridan nozori bo'lsalar apellatsiya berish imkoniga ega bo'ladi. Bu jihat bilan Xalqaro tijorat sudlari nizo ishtirokchilariga nizoni hal qilishda arbitraj sudlaridan ko'ra ko'proq imkoniyat berishini ko'ramiz.

Xalqaro iqtisodiy, tijoriy nizolarni hal ko'rishda Xalqaro tijorat sudlarining vujudga kelishi va faoliyat olob borishi bir ma'noda arbitraj sudlari bilan o'zaro raqobatga kirishishni ham anglatadi. Bu esa nizolashayotgan taraflar uchun nizoni hal etishda eng qulay sud institutini tanlashda tanlov erkinligini oshiradi. Raqobat bor joyda rivojlanish bo'ladi deganlaridek, shu kabi sud tuzilmalarining ko'payishi sohada raqobat muhitini rivojlantirib sifatli xizmatni ko'rsatishni yaratadi.

Xulosa

Yuqorida Xalqaro tijorat sudlarining hozirig kunda

nizolarni hal etishda tutgan o'rni va ahamiyati, ularning boshqa arbitraj sudlari bilan taqoslaganda ajralib turadigan farqli jihatlarini ko'rib chiqdik. Jahonda nizolarni muqobil hal etish vositalardan biri sifatida xalqaro tijorat sudlari ham arbitraj sudlari kabi xalqaro va tijoriy xususiyatga ega nizolarni hal etishga ixtisoslashgan bo'ladi va boshqa shu kabi sudlardan o'zining apellatsiya instansiyasiga egaligi va boshqa xususiyatlari bilan farqlanadi ekan. Shuningdek, bu sudlarni yurtimizda tashkil etish harakatlarining qisqacha tarixi bilan tanishgan bo'ldik. Yurtimizda bu sudni tashkil etish xalqaro maydonda O'zbekistonni investitsiyaviy faoliyat uchun jozibador qilishga xizmat qilishi kutiladi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sh.Mirziyoyev. "O'zbekiston Respublikasi Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi" -2022. y
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2017-yil 22 dekabrda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga yo'llagan murojaatnomasi. <https://www.xabar.uz>
3. Ruckteschler, D., & Stooss, T. (2019). International commercial courts: a superior alternative to arbitration?. *Journal of International Arbitration*, 36(4).
4. Movsesian, Mark L. "International Commercial Arbitration and International Courts." *Duke J. Comp. & Int'l L.* 18 (2007): 423.
5. Wilske, Stephan. "International Commercial Courts and ArbitrationAlternatives, Substitutes or Trojan Horse." *Contemp. Asia Arb. J.* 11 (2018): 153.